

QO'QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2026-yil 2-son)



FILOLOGIYA  
PHILOLOGY

ORCID: 0009-0005-9771-5227

**TILSHUNOSLIKDA PRAGMATIKANING TARIXIY VA LISONIY  
RIVOJLANISHI TAHLILI**

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.054>

*Sattorova Feruza Elmurodovna*  
(Samarqand davlat chet tillar instituti  
Katta o'qituvchi, PhD, doktorant)  
(99)941-14-08

**ANNOTATSIYA** Tilni bilish va undan unumli foydalanish o'ta murakkab jarayon bo'lib, muloqot tez va oson, tushunarli kechishi tilshunoslikning pragmatika sohasi bo'yicha bilimlarga ehtiyojni oshiradi. Shu sababli pragmatika sohasining mustaqil yo'nalish sifatida shakllanib borishi va u haqidagi nazariy va amaliy bilimlarning boyib borishi jarayonini izchil o'rganish bu soha bo'yicha majmuaviy izlanishlar olib borishga yordamlashadi.

**Kalit so'zlar:** *pragmatika, sotsiolingvistika, shakl, ma'no. vazifa, kontekst, muloqotdoshlar, diskurs*

**ANALYSIS OF THE HISTORICAL AND LINGUISTIC DEVELOPMENT OF  
PRAGMATICS IN LINGUISTICS**

**ABSTRACT** Knowing and using language effectively is a very complex process, and the need for communication to be fast, easy, and understandable increases the need for knowledge in the pragmatics field of linguistics. Therefore, a consistent study of the process of the formation of the field of pragmatics as an independent direction and the enrichment of theoretical and practical knowledge about it will help to conduct comprehensive research in this area.

**Key words:** *pragmatics, sociolinguistics, form, meaning, task, context, interlocutors, discourse*

**АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКОГО И ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ  
ПРАГМАТИКИ В ЛИНГВИСТИКЕ**

**АННОТАЦИЯ** Познание и эффективное использование языка — очень сложный процесс, а потребность в быстрой, легкой и понятной коммуникации повышает потребность в знаниях в области прагматики в лингвистике. Поэтому последовательное

изучение процесса формирования прагматики как самостоятельного направления и обогащение теоретических и практических знаний о ней помогут провести всесторонние исследования в этой области.

**Ключевые слова:** прагматика, социолингвистика, форма, значение, задача, контекст, собеседники, дискурс.

Ma'lumki, tilshunoslik fani bir necha bosqichlarni bosib o'tdi, boshqacha aytganda, an'anaviy tilshunoslik til obyektlarini tavsiflashdan boshlangan bo'lsa (qiyosiy-tarixiy tilshunoslik), XX asrning birinchi choragidan struktur tilshunoslik ildiz ota boshladi, dunyo tilshunosligida tilga semiotik nuqtayi nazardan yondashuv asosiy o'rinni egalladi. Ferdinand de Sossyur g'oyalari asosida til belgilar sistemasi sifatida qaraldi va til birliklarining sistemaviy-struktur tabiatini ochib berishga asosiy e'tibor berildi. Ammo tilshunoslikda mazmuniy yo'nalishning maydonga kelishi va bu yo'nalish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlarning olib borilishi natijasida til birliklarini o'rganishda bir talay muammolar mavjud ekanligi ko'zga tashlandi. Tilshunoslikning bu yangi yo'nalishlarida inson omili, nutqiy faoliyatda uning o'rni haqida ko'plab qarashlar vujudga keldi, natijada o'tgan asrning oxirlarida tildan foydalanuvchining lisoniy muloqotga nechog'lik ta'sir etishi o'rganila boshlandi. Tilshunoslikda mazmuniy tadqiqotlarning kuchayishi natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, lisoniy birliklarning shakl va mazmun tomondan tasnifi ham tilni to'liq izohlashga imkon bermaydi. Lisoniy birliklarni kontekst, nutq vaziyati bilan bog'lab o'rganishgina ularning ma'nosini to'g'ri tushunishga katta imkoniyat beradi.<sup>61</sup> Bu esa tilshunoslikda "zamonaviy" yo'nalishlar – pragmatik lingvistika, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika kabi sohalar vujudga kelib, ular til haqida ko'plab nazariy dalillar to'planishiga zamin yaratdi. Tilshunoslikda o'tgan asrning ikkinchi choragida shakllanishni boshlagan bu paradigmalarda tilshunoslik olamida haqiqiy inqilob bo'ldi deyish mumkin, zero, tilshunoslikdagi bu yo'nalishlar faqat tilning sistem tuzilishi nazariyasi atrofida o'ralashib qolmay, tilni mavhumlikka qaram qilib qo'ygan shakllardan ko'ra uni ijtimoiy hayotdagi faol rolga e'tibor qaratdi. Shuningdek, bu ilmiy yangiliklar sohada duch kelingan ko'plab muammolar yechimini topishga imkon yaratdi. Ammo pragmatika sohasining shakllanishi tarixiga nazar tashlasak, bu soha lingvistikadan o'rin olgunga qadar uch katta davrni bosib o'tdi.

Birinchi bosqich o'tgan asrning 30-yillarida Charliz Morris tomonidan pragmatika termini iste'molga kiritilib, semiotikani tushunish uchun sintaktika va semantikadan tashqari pragmatikaning muhimligi haqidagi qarashlarni olg'a surdi. Olim pragmatikani belgilarning ulardan foydalanuvchilar bilan munosabatini, boshqacha aytganda, ta'sirini aniqlaydigan bir soha sifatida talqin qildi.<sup>62</sup> Bu davrda pragmatika falsafiy nuqtayi nazardan o'rganildi.

<sup>61</sup> Кифер Ф.О. Роли прагматики в лингвистическом описании // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI, М.: Прогресс, 1985. – С.23.

<sup>62</sup> Morris C. W. Signification and Significance. A Study of the Relations of Signs and Values. - Cambridge, Massachusetts: The M.I.T Press, 1964. – P. 44.

Pragmatika sohasi rivojlanishining ikkinchi bosqichi 1960-1970 yillar davomida amalga oshib, bu davrni pragmatikani tilshunoslikka kirib kelishi bilan izohlash mumkin. Bunda tilshunoslar va nutqiy aktlar nazariyotchilari Jon Ostin, Jon Serl va Paul Grayslarning xizmatlari katta bo‘lib, ularning bu sohadagi tadqiqotlari pragmatikaning falsafa va tilshunoslik o‘rtasidagi chegaralarini belgilab berdi. Pragmatikaning tilshunoslikka kirib kelishi natijasida til va inson o‘rtasidagi munosabatlar chuqurroq o‘rganila boshlandi. Zero, J.Ostin va uning talabasi Jon Serl nutqiy akt nazariyasining fanga olib kirib bu soha rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. P.Grays esa “Mantiq va Muloqot”(“Logic and Conversation”) asari bilan kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismlari bo‘lgan so‘zlovchi, tinglovchi va tushunib ijro etish orasidagi munosabatlarda o‘zaro hamkorlik tamoyilini(cooperative principle) o‘lga surib, muloqotning umumiy tabiatini ochib berdi.<sup>63</sup>

Uchinchi davr esa pragmatikaning lingvistikada mustaqil soha bo‘lib shakllanishi bilan belgilanadi. Bu davr o‘tgan asrning 70-80-yillariga to‘g‘ri kelib, pragmatika muhim nazariy bilimlar bilan boyidi. Bu davrda tilshunoslar G.Lich va S.Levinsonlar ilgari surgan tamoyillar pragmatika sohasining ko‘plab tushunchalar bilan boyishiga xizmat qildi. Bundan tashqari, bu davrni dunyo tilshunoslari pragmatika atrofida to‘plangan davr deyishimiz mumkin. Chunonchi, 1977-yilda xalqaro jurnal “Journal of Pragmatics” va 1986-yilda Xalqaro Pragmatika Assotsiatsiyasi (The International Pragmatics Association)ning tashkil topishi yuqoridagi fikrimiz isbotidir. Shundan buyon pragmatika tilshunoslikning turli ilmiy paradigmalar bilan boyib borayotgan sohasi sifatida rivojlanib kelmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bu zamonaviy yo‘nalishlar o‘zidan oldingi tilshunoslik yo‘nalishlaridagi yutuqlarni inkor etmagan holda ular negizida rivoj topdi, zero, “ilmiy paradigmalar bir-birini inkor etmasdan, o‘zaro hamkorlikda, biri ikkinchisining nuqsonlarini bartaraf etgan holda rivoj topadilar”<sup>64</sup>.

Boshqacha aytganda, tilshunoslikning bu sohasida til belgilarining nutqiy faoliyatidagi dinamikasi tadqiq qilinadi. Shuni yodda tutish kerakki, tilshunoslar tomonidan pragmatikaga berilayotgan ta’riflar turli-tumandir, bunga sabab balki bu sohada hali qilinajak ishlarning mo‘l-ko‘lligi, tilning ijtimoiy vazifasini amalga oshirishda individning va jamoaning rollari borasidagi ochilmagan qirralarning ko‘pligidir. Ba’zi tilshunoslar pragmatikani lisoniy vositalarning qo‘llanilishini, matndagi munosabatlarga bog‘liq ravishda o‘rganuvchi fan deb qarasarlar, boshqa bir guruh tilshunoslar esa nutqdan ko‘zlangan maqsadni qo‘lga kiritish uchun lisoniy vositalardan foydalanish usullari deb tushunadilar. Sh.Safarovning fikriga ko‘ra, “Til tizimi tararaqqiyotining boshlang‘ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi...Zero, lison dastlabki o‘rinda so‘zlovchining shaxsiy istagi, foydasi uchun xizmat qiladi. Lisonning nutq ijodkori bilan bog‘liq tomonlarini o‘rganish muhimdir”.<sup>65</sup>Bundan tashqari, pragmatikaning semantik- axboriy talqini ham mavjud. Zero, pragmatikaga semantika masalalarini o‘rganish

<sup>63</sup> Grice H. P. Logic and Conversation // P. Cole & J. L. Morgan. Speech Acts (Syntax and Semantics). - New York.: Academic Press, 1975. – P. 48.

<sup>64</sup>Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.35.

<sup>65</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 37 .

kuchaygan bir paytda e‘tibor berilishi bejiz emas. Chunki semantikaning tadqiqot ko‘lami g‘oyat kengayib ketganligi tufayli uni biroz yengillashtirishga, ma‘noning kontekst bilan bog‘liq qismidan xolos etishga to‘g‘ri keldi.<sup>66</sup>Bunda pragmatikaning tadqiq manbai aloqa - aralashuv jarayonining amaliy natijasi, maqsadi va uning amaliy samarasidadir deb baholaydilar. Qanday bo‘lmasin, pragmatika yuqorida sanab o‘tilgan har uch talqinga ko‘ra nutq jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda ko‘riladi va tilshunoslik faniga bevosita aloqador hisoblanadi. Pragmatika tilshunoslikning bir tarmog‘i, aniqroq qilib aytganda, nutq birliklarining nutq jarayonida boshqa nolisoniy vositalar bilan birgalikda qo‘llanishini, uning samaradorligini o‘rganuvchi fan tarmog‘idir. Pragmatik ma‘lumotlar ssenariy yoki «ramkalar» shaklida tashkillashtiriladi. Pragmatik bilim interaktiv tizimlarda ham qo‘llaniladi. Ba‘zi tilshunoslar pragmatikani nutqiy aktning bevosita munosabatini o‘rganuvchi soha deb hisoblaydi. Nutqiy akt kontekst bilan bog‘liq holda til va nutq birliklarining xususiyatlari ochilgan joyda pragmatikaga ehtiyoj tug‘iladi.<sup>67</sup> Nutqiy aloqa jarayoni bilish, anglash, ifodalash, sezish, o‘qish bilan uzviy aloqador ifoda shakllarining qo‘llanila boshlashining o‘zidayoq munosabat tushunchasi paydo bo‘la boshlaydi. Shuning uchun ham bularga xos sintaktik, semantik va ayniqsa, pragmatik xususiyatlarni ma‘lum lingvistik mezonlar asosida ajratish bugungi tilshunoslikning asosiy masalalaridandir. Pragmatikani so‘zlovchining voqelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o‘quvchi) bo‘lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy olgan ta‘sirchanlik kuchini aniqlovchi fan (nutqiy ta‘sir nazariyasi) sifatida tasavvur etuvchilar ham yo‘q emas. Umuman olganda, nutq obyekti bilan bog‘liq ravishda lingvistik pragmatika quyidagi masalalarni o‘rganadi:

- matn bilan bog‘liq hodisalar, pragmatik vaziyat va presuppozitsiya, kontekst va so‘zlovchining ongli ravishda muloqot qonun-qoidalaridan cheklanishi bilan bog‘liq jarayonlarni sharhlash bilan shug‘ullanadi;

- tinglovchining his-tuyg‘ulariga ta‘sir etuvchi (perlokutiv akt) kommunikativ akt sifatida tadqiq etadi.<sup>68</sup>

Bundan tashqari, pragmatikaning xususiy masalalari nutq subyekti va nutq vaziyati bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Subyekt bilan bog‘liq masalalarga kommunikativ niyatning yashirin va oshkoraligi, kommunikativ niyatni ifodalash uchun munosib usulni tanlash, tagma‘noning presuppozitsiyadan farqlash muammolari, so‘zlovchi olamining xususiyatlarini qamrab oladi. Gap nutq vaziyati haqida ketganda lingvistik pragmatika quyidagi masalalarga e‘tiborni qaratadi:

- nutqiy muloqot shakllari (xabar xarakteridagi dialog, do‘stona suhbat, munozara va boshqa mazmuniy munosabatni ifodalovchi birliklar);

- ijtimoiy-etiket mazmunidagi nutqiy shakllar;

<sup>66</sup> Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi: (Sintaksis) – T.: O‘qituvchi, 1995. – B. 10.

<sup>67</sup> Арутюнова Н. Д. Истоки, проблемы и категории прагматики [Текст] / Н. Д. Арутюнова, Е. В. Падучева // Новое в зарубежной лингвистике / общ. ред. Е. В. Падучевой. – М. : Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 28.

<sup>68</sup> В.О‘rinboyev. Lingvistik pragmatika va uning o‘rganish muammolari // Til tarqiyotining derivatsion muammolari. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari . Samarqand, SamDCHTI nashri, 2009. - B.118.

- muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutqiy akt ko‘rinishlari (iltimos, buyruq kabi);

- deytik belgilar vazifalari tavsiflanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan lingvistik pragmatikaning xususiy masalarini yoritish bu sohaga yondosh bo‘lgan yo‘nalishlar psixolingvistika, sotsiolingvistika, matn tilshunosligi, kommunikativ lingvistika, stilistika kabi fanlarga murojaat qilishni taqozo etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, pragmatika bir necha irmoqlardan oqib keladigan bilimlar majmuasidan tashkil topgan katta bir ummonki, uning chegarasini aniqlab olishning o‘zi katta bilimni talab etadi. Pragmatika nutq va axloqiy, insoniy xatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab fanlarning kesishish nuqtasida turadi. Pragmatika struktur tilshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, poetika va lingvopoetika, psixolingvistika, etika va estetika kabi fanlar bilan, umuman insonning ongli va ongsiz madaniy va tabiiy xatti-harakati bilan bog‘lik bo‘lgan, umumiy nomi madaniyatshunoslik bilan birlashadigan fanlarning barchasi bilan yaqin aloqada bo‘ladi. Ammo ularning birortasi pragmatikaning o‘rnini to‘la-to‘kis bosa olmaydi. Pragmatikaning «qayta tug‘ilish davri» deb e‘tirof etilgan 1970 yildan boshlab xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik yuksalish yuzaga keldi. Bu mavzuga oid qator anjumanlar, yig‘inlar o‘tkazildi. Bu darajada jadal taraqqiy etayotgan fan sohasining to‘lig‘icha shakllanishi, o‘zligini ajratib olishi uchun uning asosiy tamoyillari, tushunchalari, predmetini belgilab olish zarurati yuzaga keldi. Ammo chuqur izlanishlarga qaramay, bu muammo hali hanuz muammoligicha qolmoqda. Zero, pragmatik qobiliyatni shakllantirish uchun shu katta ummonda to‘plangan bilimlarga zarurat mavjud.

Oxirgi yarim asr davomida pragmatika yuzasidan tadqiqotlar turli-tuman bo‘lishiga qaramay, bu yo‘nalish amaliy tus olib, to‘plangan nazariy bilimlarni darslarida talabalarga qanday singdirish, bu borada qanday o‘quv-aralashuv ishlarini tashkil qilish zarurati bo‘yicha tadqiqotlar ommalashganini ko‘rish mumkin. Bu boradagi tadqiqotlarni o‘rganib chiqqan N.Taguchi ularni pragmatikani o‘quv-aralashuv usul bilan rivojlantirish samaralarini tekshirishga qaratilgan tadqiqotlar va pragmatik qobiliyatni takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar sifatida ikki guruhga bo‘ladi<sup>69</sup>. Shuningdek, pragmatik qobiliyatni shakllantirish bo‘yicha olib borilgan dastlabki ishlarda ma‘lum bir kontekstda ko‘zlangan kommunikativ maqsadga erishish uchun qaysi shakldan foydalanish, ya‘ni shakl-ma‘no-kontekst uchligi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lsa, diskursiv pragmatika va interaktiv kompetensiya tushunchalarining rivojlanishi natijasida shakl-vazifa-foydalanish konteksti har doim ham birga-bir to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatdi. Bu esa pragmatika tushunchasini yangi rakursdan o‘rganishni talab qiladigan tadqiqotlarga ehtiyojni oshiradi. Pragmatikani hozirgi kunda barcha interaktiv manbalar sifatida tushunilishi, bu sohani shakl-vazifa-kontekst

<sup>69</sup> N.Taguchi. Teaching pragmatics: trends and issues. Annual Review of Applied Linguistics (2011), 31, 289-310. Cambridge University Press, 2011. (P 290)

bog‘lanishlari har doim o‘zgarishdaligini, shuning uchun ham so‘zlovchi munosabati, ta‘siri va diskurs yo‘nalishiga qarab o‘zgaruvchan kontekstual dinamika doirasida o‘rganishga chaqiradi.

Xullas, pragmatikaning rivojlanish bosqichlarinki o‘rganish orqali turli o‘zgarishlarga ehtiyoj sabablari oydinlashtirib olinadi. Har bir o‘zgarish natijasida pragmatik qobilyat bo‘yicha tasavvurlarning yanada chuqur bilim bilan boyiydi. Bu esa pragmatikani asl mohiyatini anglashga va uni pedagogik jarayonga olib kirish usullarini optimallashtirishga ko‘maklashadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Кифер Ф.О. Роли прагматики в лингвистическом описании // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI, М.: Прогресс, 1985. – С.23.
2. Morris C. W. Signification and Significance. A Study of the Relations of Signs and Values. - Cambridge, Massachusetts: The M.I.T Press, 1964. – P. 44.
3. Grice H. P. Logic and Conversation // P. Cole & J. L. Morgan. Speech Acts (Syntax and Semantics). - New York.: Academic Press, 1975. – P. 48.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.35.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi: (Sintaksis) – Т.: O‘qituvchi, 1995. – Б. 10.
6. Арутюнова Н. Д. Истоки, проблемы и категории прагматики [Текст] / Н. Д. Арутюнова, Е. В. Падучева // Новое в зарубежной лингвистике / общ. ред. Е. В. Падучевой. – М. : Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 28.
7. В.О‘rinboyev. Lingvistik pragmatika va uning o‘rganish muammolari // Til tarqiyotining derivatsion muammolari. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari . Samarqand, SamDCHTI nashri, 2009. - B.118.
8. N.Taguchi. Teaching pragmatics: trends and issues. Annual Review of Applied Linguistics (2011), 31, 289-310. Cambridge University Press, 2011. (P 290)